| <b>Qobilov Anvar Eshpo'latovich</b>                                                                                                                                  |     |
| MASHINASOZLIKDA DETALLARNI SARALAB YIG'ISHNING AFZALLIGI VA AHAMIYATI .....                                                                                          | 705 |
| <b>Baxramov Faxridin Xuzriddinovich, Abdixamidov Nurbek Ural o'g'li, Abdullayev Djura Xudoyorovich</b>                                                               |     |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ ЭСКРОУ-СЧЕТОВ .....                                       | 712 |
| <b>Жаксымуратов Казбек Раджович</b>                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....                                                                        | 717 |
| <b>Nurullayev Baxrom Botirovich</b>                                                                                                                                  |     |
| XIZMATLAR SOHASI RIVOJIDA DAROMADLARNING INKLYUZIV O'SISHI, KAMBAG'ALLIK DARAJASI TUSHISHINING MUHIM OMILIDIR.....                                                   | 724 |
| <b>Saparov Murod Irgashovich</b>                                                                                                                                     |     |
| BOZOR MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINING DOLZARB MASALALARI.....                                                                                 | 728 |
| <b>Umurzak Rajabov</b>                                                                                                                                               |     |
| TIJORAT BANKLARIDA RESURS BAZASI SHAKLLANISHINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....                                                                                   | 734 |
| <b>Bolibekov Shahboz Baxodir o'g'li</b>                                                                                                                              |     |
| OLIY TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI O'RTASIDAGI INNOVATSION HAMKORLIK .....                                                                                  | 741 |
| <b>Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich</b>                                                                                                                         |     |



|                                                                                                                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QURILISH TARMOG'IDA KICHIK VA YIRIK KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION-INNOVATSION MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....                              | 744 |
| <b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>                                                                                                                                            |     |
| КЛЮЧЕВЫЕ ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА ПЕДАГОГА КАК ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.....                                                                                | 750 |
| <b>Киличева Феруза Бешимовна</b>                                                                                                                                               |     |
| NEYROPSIXOLINGVISTIKADA INVERSIV GAP KONSTRUKSIYALARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI .....                                                                                       | 755 |
| <b>Tuyboyeva Shakhnoza</b>                                                                                                                                                     |     |
| ROLE OF MODERN MODELS IN REGIONAL PRODUCTION MANAGEMENT .....                                                                                                                  | 758 |
| <b>Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich</b>                                                                                                                                     |     |
| HUDUDIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MONITORING TIZIMINING AHAMIYATI.....                                                                                      | 761 |
| <b>Karimova Shirin Zoxid qizi</b>                                                                                                                                              |     |
| MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI .....                                                                                           | 766 |
| <b>Xolmatova Asila Menglimurod qizi</b>                                                                                                                                        |     |
| QASHQADARYO VILOYATIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI .....                                                             | 773 |
| <b>Sattorov Firdavs Ziyodullayevich</b>                                                                                                                                        |     |
| TUSHUM VA DAROMAD HISOBI KATEGORIYALARINI XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARI ASOSIDA TAHLILI.....                                                                          | 777 |
| <b>Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich</b>                                                                                                                                      |     |
| GLOBALASHUV SHAROITIDA TADBIRKORLIKDA XALQARO SAVDO MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ..... | 783 |
| <b>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</b>                                                                                                                                       |     |
| QASHQADARYO VILOYATINING TABIIY TURISTIK RESURSLARI VA ULARNING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....                                                                             | 790 |
| <b>Suyunova Dilnoza Mexridin qizi</b>                                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKTELEKOM AK TEXNIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH: DEA CCR MODEL VA MALMQUIST TFP INDEKSI ASOSIDA TAHLIL.....                                                                   | 794 |
| <b>Salimova Husniya Rustamovna</b>                                                                                                                                             |     |
| BIZNES-JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING MOHIYATI VA ULARNI MOLIVAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORASIDAGI BOG'LIQLIK.....                                                        | 800 |
| <b>Qarshiyeva Moxinur Olim qizi</b>                                                                                                                                            |     |
| XORIJIY TURISTLAR UCHUN KREATIV VA JOZIBADOR TURIZM MAHSULOTLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....                                                                               | 805 |
| <b>Abdurasulov Shavqiddin Erkin o'g'li</b>                                                                                                                                     |     |
| XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI MOLIVAVIY RESURSLARINING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI LOYIHALARDAGI ROLI VA SAMARADORLIGI .....                                          | 811 |
| <b>Rasulova Dilfuza Valiyevna</b>                                                                                                                                              |     |



# XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIYAVIY RESURSLARINING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI LOYIHALARDAGI ROLI VA SAMARADORLIGI

**Rasulova Difuza Valiyevna**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,  
“Moliya va buxgalteriya hisobi”  
kafedrasini mudiri, DSc., professor  
ORCID ID: 0009-0008-1778-0054

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya institutlari bilan olib borayotgan hamkorlik aloqalari, ushbu institutlar tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslar hamda ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. Xususan, 2022–2024-yillar davomida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan O'zbekistonga ajratilgan kreditlar, grantlar va investitsiyalarning tarmoqlar kesimidagi taqsimoti va ularning iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishdagi ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, tashqi moliyaviy resurslarning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq va suv xo'jaligini modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlash hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil hisoblanishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro moliya institutlari, moliyaviy resurslar, investitsiyalar, tashqi qarz, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, energetika, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, O'zbekiston iqtisodiyoti.

**Abstract.** This article analyzes the cooperation between the Republic of Uzbekistan and international financial institutions, the volume of financial resources allocated by these institutions, and their impact on the country's economic development. In particular, the study examines loans, grants, and investments provided to Uzbekistan during 2022–2024 by leading international financial institutions such as the World Bank, the Asian Development Bank, the Islamic Development Bank, and the European Bank for Reconstruction and Development, as well as their sectoral distribution and significance for the modernization of the national economy. The article also considers the role of external financial resources in developing transport and energy infrastructure, modernizing agriculture and water management, supporting social sectors, and accelerating digital transformation processes. The findings show that cooperation with international financial institutions is an important factor in ensuring macroeconomic stability, improving the investment climate, and promoting sustainable economic growth in the country.

**Keywords:** international financial institutions, financial resources, investments, external debt, economic development, infrastructure, energy, digital transformation, sustainable development, economy of Uzbekistan.

**Аннотация.** В данной статье анализируются направления сотрудничества Республики Узбекистан с международными финансовыми институтами, объемы выделяемых ими финансовых ресурсов, а также их влияние на экономическое развитие страны. В частности, исследованы кредиты, гранты и инвестиции, предоставленные Узбекистану в 2022–2024 годах такими международными финансовыми институтами, как Всемирный банк, Азиатский банк развития, Исламский банк развития, Европейский банк реконструкции и развития и другими организациями, а также их распределение по отраслям экономики и значение для модернизации национальной экономики. Кроме того, рассмотрена роль внешних финансовых ресурсов в развитии транспортной и энергетической инфраструктуры, модернизации сельского и водного хозяйства, поддержке социальной сферы и ускорении процессов цифровой трансформации. Результаты исследования показывают, что сотрудничество с международными финансовыми институтами является важным фактором обеспечения макроэкономической стабильности, улучшения инвестиционного климата и стимулирования устойчивого экономического роста в стране.

**Ключевые слова:** международные финансовые институты, финансовые ресурсы, инвестиции, внешний долг, экономическое развитие, инфраструктура, энергетика, цифровая трансформация, устойчивое развитие, экономика Узбекистана.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini izchil rivojlantirib bormoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xalqaro moliya institutlarining moliyaviy va texnik ko'magini muhim vosita sifatida ko'rmoqda. Ayniqsa, 2022–2024-yillar davomida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa yetakchi moliyaviy tuzilmalar tomonidan O'zbekistonga ajratilgan imtiyozli kreditlar, grantlar va investitsiyalar mamlakatda qator yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga zamin yaratdi. Ushbu mablag'lar asosan transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligini rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini isloh qilish kabi ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilgan. O'z navbatida, davlat moliyasiga tushadigan yukni kamaytirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish, hamda zamonaviy boshqaruv va texnologiyalarni joriy qilish imkonini berdi.

Ajratilgan mablag'lar evaziga O'zbekistonda qator strategik loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki ko'magida mamlakat elektr energiyasi uzatish va taqsimlash tizimi tubdan yangilandi, bu esa energetika tizimining ishonchliligi va samaradorligini oshirdi. Jahon banki bilan hamkorlikda esa suv ta'minoti va sanitariya xizmatlarini yaxshilash, ayniqsa, chekka hududlarda aholi turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha bir nechta yirik loyihalar amalga oshirildi. Islom taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirilgan qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish dasturlari orqali yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ekinlar hosildorligini oshirish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichida xalqaro moliya institutlarining ko'magida sog'liqni saqlash, ta'lim, aholi bandligini ta'minlash va ijtimoiy himoya sohalarida ham bir qator muhim tashabbuslar ilgari surildi va amaliyotga tadbiq etildi. Ushbu loyihalar nafaqat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatladi, balki aholining farovonlik darajasini oshirishda ham muhim omil bo'ldi.

Kelgusi yillarda O'zbekiston Respublikasi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish orqali barqaror rivojlanish yo'lidan borishni maqsad qilgan. Ayniqsa, zamonaviy global chaqiriqlarga javoban, yashil iqtisodiyotga o'tish, iqlim o'zgarishiga moslashish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yangi strategik yo'nalishlar bo'yicha xalqaro moliyaviy resurslardan samarali foydalanish rejalashtirilmoqda. Bunda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, loyihalarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, xalqaro moliya institutlari bilan ishonchli va tizimli muloqotni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik nafaqat moliyaviy ko'mak sifatida, balki ilg'or tajriba va bilimlarni mamlakatimizga olib kirish imkoniyati sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bu esa O'zbekistonning global iqtisodiy maydondagi nufuzini oshirish, xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash, eng muhimi esa, milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu institutlar uzoq muddatli kreditlar, grantlar, texnik yordam va investitsiya dasturlari orqali milliy iqtisodiyotlarni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish hamda institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Xalqaro moliya institutlarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

J. Stiglitz o'z tadqiqotlarida xalqaro moliya institutlarining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi rolini tahlil qilib, ushbu institutlar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy resurslar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya jarayonlarini rag'batlantirish hamda institutsional islohotlarni amalga oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi (Stiglitz, 2002). Shuningdek, J. Sachs va A. Warner tadqiqotlarida xalqaro moliyaviy resurslarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy o'sishiga ta'siri, kapital oqimlarining samaradorligi hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi ahamiyati tahlil qilingan (Sachs & Warner, 1995).

Xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar samaradorligi masalalari Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning ilmiy hisobotlarida ham keng yoritilgan. Xususan, Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma, energetika, transport va qishloq xo'jaligi sohalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi (World Bank, 2021).

Osiyo taraqqiyot banki hisobotlarida ham xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va energetika tizimini rivojlantirishda muhim omil ekanini qayd etilgan (ADB, 2022). Ushbu tadqiqotlarda xalqaro moliyaviy resurslardan samarali foydalanish loyiha boshqaruvi, monitoring tizimi va institutsional muhit bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan.



O'zbekiston iqtisodiyotida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalalari ham mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Sh. Shodmonov va Q. Xoshimov o'z ilmiy tadqiqotlarida xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi, investitsiya jarayonlarini faollashtirish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar (Shodmonov, 2019; Xoshimov, 2020).

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot banki tomonidan energetika, transport, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarida ko'plab investitsiya loyihalari moliyalashtirilmoqda. Ushbu loyihalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, infratuzilmaning modernizatsiyasi hamda xususiy sektorni rivojlantirishga xizmat qilmoqda (EBRD, 2023).

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda xalqaro moliya institutlari moliyaviy resurslarining O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalaridagi samaradorligini kompleks baholash, ularning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini chuqur tahlil qilish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqot xalqaro moliya institutlari moliyaviy resurslarining O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi loyihalardagi roli va samaradorligini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, taqqoslash, monografik kuzatuv, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston o'zining rivojlanish strategiyasida xalqaro moliya institutlari bilan tizimli hamkorlikni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgiladi. 2017-yildan boshlab olib borilgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat, valyuta bozorining liberallashtirish, sud-huquq sohasidagi islohotlar hamda moliyaviy shaffoflikka intilish O'zbekistonni xalqaro moliyaviy hamjamiyat uchun ishonchli hamkor sifatida ko'rsatdi. 2022–2024-yillar davomida turli xalqaro moliya institutlari, hukumatlararo agentliklar va investorlar tomonidan mamlakatimizga jami 33,29 milliard AQSH dollari miqdorida moliyaviy resurslar jalb qilindi. Ushbu mablag'lar davlat investitsiya dasturlari, infratuzilma modernizatsiyasi, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish va iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi. Bunday yondashuv mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlab, uzoq muddatli rivojlanish asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro moliya institutlari tomonidan O'zbekistonga ajratilgan moliyaviy mablag'lar, mlrd AQSH dollar

| №  | Institut nomi                          | 2022 | 2023  | 2024  | Jami  | Ulushi (%) |
|----|----------------------------------------|------|-------|-------|-------|------------|
| 1  | Jahon Banki                            | 2,2  | 2,4   | 3,0   | 7,6   | 22,5       |
| 2  | Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB)           | 2,0  | 2,3   | 3,1   | 7,4   | 22,0       |
| 3  | Xalqaro investorlar (yevroobligatsiya) | 1,1  | 1,4   | 1,6   | 4,1   | 12,2       |
| 4  | Xitoy moliya institutlari              | 1,0  | 1,3   | 1,5   | 3,8   | 11,3       |
| 5  | Yaponiya moliya institutlari           | 0,7  | 0,9   | 1,3   | 2,9   | 8,6        |
| 6  | Osiyo Infratuzilma Investitsiya Banki  | 0,4  | 0,5   | 0,7   | 1,6   | 4,8        |
| 7  | Islom Taraqqiyot Banki (IDB)           | 0,2  | 0,3   | 0,44  | 0,944 | 2,8        |
| 8  | Fransiya moliya institutlari           | 0,25 | 0,3   | 0,427 | 0,977 | 2,9        |
| 9  | Koreya moliya institutlari             | 0,2  | 0,22  | 0,32  | 0,74  | 2,2        |
| 10 | Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF)      | 0,15 | 0,2   | 0,319 | 0,669 | 2,0        |
| 11 | Germaniya davlat banki (KfW)           | 0,1  | 0,14  | 0,175 | 0,415 | 1,2        |
| 12 | Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki  | 0,09 | 0,11  | 0,141 | 0,341 | 1,0        |
| 13 | Boshqa moliyaviy institutlar           | 0,5  | 0,6   | 0,8   | 1,9   | 5,7        |
|    | Jami                                   | 8,89 | 10,57 | 13,83 | 33,29 | 100%       |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonga ajratilgan umumiy moliyalashtirish hajmining yarmiga yaqini Jahon Banki (7,6 mlrd dollar, 22,5%) va Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) (7,4 mlrd dollar, 22%) hissasiga to'g'ri

kelmoqda. Ushbu ikki institutning yirik moliyaviy ishtiroki O'zbekiston bilan olib borilayotgan strategik hamkorlik darajasining yuqoriligini anglatadi. Jahon Banki guruhi asosan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga, kambag'allikni qisqartirishga, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirgan. Masalan, 2023-yilda boshlangan "Ichimlik suvi va sanitariya xizmatlarini yaxshilash" loyihasi orqali millionlab aholi toza suv bilan ta'minlandi. OTB esa energetika, transport, qishloq xo'jaligi va bandlik sohalarini qamrab oluvchi keng qamrovli loyihalarni amalga oshirdi. Ayniqsa, "Yoshlar bandligini ta'minlash va kasb-hunar tayyorlov markazlarini rivojlantirish" dasturi doirasida minglab yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, bu mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning xalqaro kapital bozorlariga muvaffaqiyatli chiqishi mamlakat moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, budjet taqchilligini qoplash va infratuzilma loyihalariga xususiy investorlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. 2022–2024-yillar davomida xalqaro investorlar orqali chiqarilgan yevroobligatsiyalar orqali mamlakatga 4,1 milliard AQSH dollari jalb qilindi. Bu umumiy moliyalashtirishning 12,2% qismini tashkil etadi. O'zbekiston tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalar dunyo moliyaviy bozori ishtirokchilari tomonidan yuqori baholangan bo'lib, ular iqtisodiyotga bo'lgan ishonch, siyosiy barqarorlik hamda makroiqtisodiy boshqaruvning kuchayganidan dalolat beradi. Xususan, 2023-yilda chiqarilgan "Yashil obligatsiyalar" ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish, havo sifati va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalariga yo'naltirildi. Bu esa O'zbekistonning global ekologik majburiyatlariga sodiqligini va barqaror rivojlanishga intilayotganini namoyon etadi.

O'zbekistonning xalqaro moliyalashtirishdagi strategik yo'nalishlaridan yana biri, ikki tomonlama moliyaviy hamkorlik bo'lib, bu yo'nalishda Xitoy (3,8 mlrd dollar), Yaponiya (2,9 mlrd), Fransiya (0,977 mlrd), Koreya (0,74 mlrd) va Germaniya (0,415 mlrd) kabi davlatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Xitoy moliya institutlari, xususan Exim Bank va "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi orqali temir yo'l, elektr energiyasi, telekommunikatsiya va infratuzilma sohasidagi yirik loyihalarni moliyalashtirdi. Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) esa "aqlli energetika tizimlari", ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarda muhim o'rin tutdi. Koreya bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Raqamli hukumat" loyihasi davlat xizmatlarining avtomatlashtirilishi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Fransiya va Germaniya banklari, xususan, AFD va KfW agentliklari esa ekologik loyihalar, energetika samaradorligini oshirish va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Hamkorliklar O'zbekistonning muhim iqtisodiy sheriklar bilan ishonchli va uzoq muddatli moliyaviy aloqalarni rivojlantirayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Osiyo Infratuzilma Investitsiya Banki (AIIB), Islom Taraqqiyot Banki (IDB) va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) bilan ham faol hamkorlik olib bormoqda. AIIB tomonidan ajratilgan 1,6 milliard dollar yo'llar, shaharlardagi transport infratuzilmasi, elektr energiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish kabi infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan. IDB orqali esa O'zbekistonda ijtimoiy sohalar – xususan sog'liqni saqlash, madaniyat va diniy merosni saqlash bo'yicha moliyaviy resurslar jalb qilinmoqda. Misol uchun, "Toshkent Islom Tamadduni markazi" loyihasi IDB ishtirokida amalga oshirilmoqda. IMF esa, o'zining an'anaviy yo'nalishlariga mos ravishda, makroiqtisodiy barqarorlik, fiskal siyosat, pul-kredit boshqaruvi va soliq tizimini isloh qilish sohalarida O'zbekistonni qo'llab-quvvatlamokda. 2022–2024-yillarda IMF tomonidan ajratilgan 0,669 milliard dollar mamlakatning valyuta barqarorligi va davlat budjeti intizomini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston tashqi qarzining eng katta qismi – 15,3 milliard AQSH dollari yoki 45 foizi davlat budjetini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Bu yondashuv moliyaviy siyosatning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, iqtisodiy barqarorlik, islohotlar davomiyligi va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish imkoniyatlarini yaratadi.

Xususan, pandemiyadan keyingi davrda davlat budjeti salmoqli bosim ostida bo'ldi: aholining real daromadlarini saqlab qolish, sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, energiya subsidiyalarini bosqichma-bosqich qisqartirish kabi yirik islohotlar bilan bir paytda makrobarqarorlikni ta'minlash zarurati yuzaga keldi. Ushbu tashqi mablag'lar asosan Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi kabi institutlar orqali jalb etilgan bo'lib, ular faqatgina moliyaviy resurs emas, balki texnik ko'mak, islohotlar bo'yicha maslahatlar va tizimli monitoringni ham taqdim etadi. Budjetni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali O'zbekiston davlat moliyasining ochiqqligi va samaradorligini oshirishga, o'rta va uzoq muddatli fiskal rejalashtirishni institutsionalashtirishga katta hissa qo'shmoqda (2-jadval).

2-jadval. 2024-yil holatiga O'zbekiston davlat tashqi qarzi taqsimoti

| Yo'nalish                    | Mablag' (mlrd dollar) | Ulushi (%) |
|------------------------------|-----------------------|------------|
| Budjetni qo'llab-quvvatlash  | 15,3                  | 45%        |
| Yoqilg'i-energetika sohasiga | 5,74                  | 17%        |
| Transport va infratuzilma    | 2,8                   | 8%         |
| Qishloq va suv xo'jaligi     | 2,9                   | 9%         |




|                         |       |      |
|-------------------------|-------|------|
| Ijtimoiy soha           | 2,5   | 7%   |
| Raqamli transformatsiya | 1,5   | 4%   |
| Boshqa sohalar          | 2,5   | 7%   |
| Jami                    | 33,24 | 100% |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

O'zbekiston tashqi qarzining 5,74 milliard dollarini yoki 17 foizini tashkil etuvchi yoqilg'i-energetika sohasi – bu nafaqat iqtisodiy, balki milliy xavfsizlik va geosiyosiy mustaqillikni belgilovchi tarmoqdır. Ayni paytda mamlakatda elektr energiyasiga bo'lgan talab har yili 7-10% ga o'smoqda, biroq mavjud ishlab chiqarish quvvatlari 1960–1980-yillarda qurilgan va eskirib ketgan. Shu sababli tashqi moliyaviy manbalar hisobidan O'zbekiston energetika tizimini to'liq modernizatsiya qilishni boshladi. Jumladan, 2024-yilga kelib Zarafshon, Nurafshon va Qoraqalpog'istondagi yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari xalqaro moliyaviy institutlar, xususan BAA va Xitoy moliya institutlari bilan hamkorlikda foydalanishga topshirildi. Bularning barchasi mamlakatning 2030-yilgacha elektr energiyasining 25 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsadiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, gaz transport tizimlarini raqamlashtirish, neftni qayta ishlash zavodlarini modernizatsiya qilish, elektr energiyasini yo'qotishsiz taqsimlash tizimlarini joriy etish kabi loyihalar ham moliyalashtirilmoqda. Strategik qadamlar uzoq muddatda energetik mustaqillikni ta'minlab, eksportbop energiya salohiyatini kengaytiradi.

O'zbekiston agrar davlat sifatida o'zining oziq-ovqat xavfsizligini, qishloq xo'jaligi eksportini va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni asosiy strategik vazifalar qatoriga kiritgan. Shu maqsadda tashqi qarzlarning 2,9 milliard dollar yoki 9 foizi aynan ushbu tarmoqlarga yo'naltirilgan. Qishloq xo'jaligida irrigatsiya tizimlari 60–70 yil oldin qurilgan bo'lib, katta suv yo'qotishlarga olib kelmoqda. Tashqi kreditlar hisobiga suv tejovchi texnologiyalar, raqamli monitoring tizimlari, dehqon xo'jaliklarini kreditlash platformalari va agro-logistika markazlari tashkil etilmoqda. Xususan, Xitoy va Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan moliyalashtirilayotgan "Smart irrigation" loyihasi suv tanqisligidan eng ko'p aziyat chekayotgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida joriy etildi. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi bilan birgalikda ishlab chiqilayotgan "qishloq xo'jaligini iqlimga moslashtirish" dasturi chorvachilik, paxtachilik va bog'dorchilikda yangi texnologiyalarni joriy etmoqda. Loyihalar qishloq infratuzilmasini mustahkamlab, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini oshiradi.

2,8 milliard AQSH dollari yoki 8 foiz tashqi qarz transport va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgani O'zbekistonning o'z geografik afzalliklarini strategik foydalanuvchi davlatga aylanayotganini ko'rsatadi. Mamlakat Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan bo'lib, u G'arb va Sharq, Janub va Shimol o'rtasidagi tranzit yo'llarning kesishgan nuqtasidir. Shu sababli temir yo'l, avtomobil yo'llari, aeroportlar va logistika markazlarini modernizatsiya qilish orqali nafaqat ichki transport tarmog'ini yaxshilash, balki xalqaro yuk tashish zanjirlariga faol integratsiyalashish ko'zda tutilgan. Misol uchun, 2024-yilda Jahon Banki ko'magida "Toshkent – Andijon" tezkor temir yo'li qurilishi boshlandi, bu loyiha Farg'ona vodiysining ishlab chiqarish imkoniyatlarini eksport bozorlariga bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, "Trans-Afg'on temir yo'li" bo'yicha xalqaro muzokaralar va moliyaviy baholashlar boshlangan bo'lib, bu loyiha O'zbekistonni Hind okeaniga olib chiqish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, infratuzilma investitsiyalari mamlakatni regional transport markaziga aylantirish orqali o'z iqtisodiy salohiyatini oshirmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston davlat tashqi qarzi taqsimoti, foizda

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2,5 milliard dollar yoki 7 foiz tashqi qarz ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgani O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida shakllanish strategiyasiga mos keladi. Bu mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy, madaniyat va nogironlar huquqlarini himoya qilish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Masalan, Jahon Banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Ta'limni sifat jihatidan transformatsiya qilish" loyihasi doirasida 3000 dan ortiq maktab yangi uskunalar bilan ta'minlandi va o'qituvchilar uchun zamonaviy tayyorgarlik markazlari tashkil etildi. Shuningdek, Germaniya va Fransiya banklari moliyalashtirayotgan "Sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish" dasturi doirasida 40 dan ortiq tibbiyot muassasasi zamonaviy jihozlar bilan jihozlandi. Ushbu moliyalashtirishlar ijtimoiy tenglikni ta'minlash, kambag'allik darajasini pasaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga asos bo'luvchi inson kapitalini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekiston global raqamli iqtisodiyotda o'z o'rnini mustahkamlash uchun 1,5 milliard dollar yoki 4 foiz tashqi moliyaviy resursni raqamli transformatsiya yo'nalishlariga jalb qilgan. Ushbu mablag'lar davlat boshqaruvi tizimini elektronlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish, hamda aholi uchun "raqamli inklyuziya" imkoniyatlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Koreya Respublikasi ko'magida yaratilayotgan "Raqamli Hukumat Milliy Platformasi" orqali soliq, kadastr, sog'liqni saqlash va adliya tizimlarining o'zaro integratsiyasi ta'minlanmoqda. Bundan tashqari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari joriy etilib, olis hududlarda yashovchi aholi qatlamlari uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Raqamli loyihalarning samarali amalga oshirilishi iqtisodiyotda yashirin sektor ulushini qisqartirish, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga olib kelmoqda.

Qolgan 2,5 milliard dollar yoki 7 foiz tashqi moliyaviy mablag'lar boshqa sohalarga – ekologiya, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, madaniy merosni asrash, ayollar va yoshlar siyosati, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarga yo'naltirilgan. Bu mablag'lar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Masalan, BMT Taraqqiyot Dasturi va Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan "Yashil hududlar" tashabbusi doirasida Qoraqalpog'iston va Buxoro viloyatlarida ekologik infrastrukturani yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish bo'yicha xalqaro donorlar ishtirokida mikrokreditlash dasturlari joriy etildi. Ushbu turdagi tashabbuslar aholi bandligini oshirish, mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan o'rnatgan barqaror va keng qamrovli hamkorlik aloqalarining mamlakat iqtisodiyoti uchun qanchalik muhim ekanligini yaqqol namoyon etadi. Bu moliyaviy resurslar nafaqat budjetni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy sohalarga xizmat qiluvchi mablag' sifatida ahamiyat kasb etadi, balki davlatning makroiqtisodiy barqarorligi va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, kelgusi yillarda moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi, energetika samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, barqaror qishloq xo'jaligi va suv resurslarini oqilona boshqarish, shuningdek inson kapitalini rivojlantirish kabi kompleks va strategik yo'nalishlar belgilangan. Ayniqsa, Parij iqlim kelishuviga muvofiq, O'zbekistonning 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishish maqsadi mamlakatni ekologik barqaror rivojlanish va yashil moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanishga yo'naltiradi, bu esa nafaqat ichki iqtisodiyotni, balki xalqaro moliyaviy maydonchadagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qolaversa, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda shaffoflikni oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurash sohalarida kuchli mexanizmlar yaratish O'zbekistonning global moliyaviy tizimdagi ishonchligini yuksaltirmoqda. Bu holat mamlakatga yangi investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish imkonini beradi. Xalqaro hamjamiyat bilan mustahkam aloqalar mamlakatning moliyaviy xavfsizligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va zamonaviy texnologiyalarni kengaytirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Shu tariqa, O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridagi pozitsiyasi mustahkamlanib, uning iqtisodiy transformatsiyasi uchun yangi istiqbollar ochilmoqda, bu esa mamlakatni barqaror va raqobatbardosh rivojlanish yo'lga olib chiqadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ochiq va pragmatik tashqi siyosat hamda moliyaviy shaffoflikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston xalqaro moliyaviy hamjamiyat uchun ishonchli va barqaror hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, 2022–2024-yillar davomida xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan 33,29 milliard AQSH dollari miqdoridagi moliyaviy resurslar



iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, ushbu mablag'lar transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirish, ijtimoiy sohalarni takomillashtirish, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi yetakchi xalqaro moliyaviy institutlarning moliyaviy ishtiroki mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni samarali qo'llab-quvvatlamoda.

Shu bilan birga, tashqi moliyaviy resurslarning tarmoqlar kesimida maqsadli yo'naltirilishi energetika, transport, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishga zamin yaratmoqda. Bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, investitsiya muhitini yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligini yanada chuqurlashtirish, jalb qilinayotgan moliyaviy resurslardan samarali va shaffof foydalanish, shuningdek "yashil iqtisodiyot", raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etish kelgusi yillarda mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim drayverlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu esa O'zbekistonning global iqtisodiy tizimdagi mavqeini mustahkamlab, milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga zamin yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi va xalqaro moliyalashtirish bo'yicha statistik ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
3. World Bank Group. Uzbekistan Country Partnership Framework 2022–2026. – Washington DC: World Bank, 2026.
4. Asian Development Bank (ADB). Uzbekistan: Country Partnership Strategy 2019–2024. – Manila: ADB, 2025.
5. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). EBRD Strategy for Uzbekistan 2018–2024. – London: EBRD, 2025.
6. Islamic Development Bank (IsDB). Member Country Partnership Strategy for Uzbekistan. – Jeddah: IsDB, 2024.
7. International Monetary Fund (IMF). Republic of Uzbekistan: Staff Report and Economic Outlook. – Washington DC: IMF, 2025.
8. Asian Infrastructure Investment Bank (AIIB). Uzbekistan Infrastructure Development Projects Report. – Beijing: AIIB, 2025.
9. Todaro M., Smith S. Economic Development. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2015.
10. Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – New York: Pearson, 2018.
11. Stiglitz J., Rosengard J. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2015.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent, 2025.
13. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable Development Goals Report for Uzbekistan. – New York, 2025.
14. JICA. Japan International Cooperation Agency Projects in Uzbekistan. – Tokyo, 2024.
15. AFD Group. Development Cooperation Projects in Central Asia. – Paris, 2025.



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)